$(S - y_1)(S - y_2)...(S - y_n) \geq (1 - y_1)(1 - y_2)...(1 - y_n)$ (**) munosabatni xosil kilamiz. Agar $0 < S < 1$ bo'lsa, $S - y_i < 1 - y_i$ yoki $\prod_{i=1}^{n}(S - y_i) \leq \prod_{i=1}^{n}(1 - y_i)$. Bu (**) ga ziddir. Demak $S \geq 1$ ekan.

33. Masalaning shartidan $|x| = \sqrt{2 - y^2 - z^2}$ va $yz \leq 1$ ekanligini ko'rish mumkin. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizliginidan quyidagi usulda foydalanib,

$$x + y + z - xyz = x(1 - yz) + y + z \leq |x| \cdot |1 - yz| + |y + z| =$$

$$= \sqrt{2 - y^2 - z^2}\,|1 - yz| + |y + z| \leq \sqrt{\left(\left(2 - y^2 - z^2\right) + \left(y + z\right)^2\right)\left(\left(1 - yz\right)^2 + 1\right)} =$$

$$= \sqrt{\left(2 + 2yz\right)\left(2 - 2yz + y^2 z^2\right)}$$

munosabatni hosil qilamiz. Endi $\left(1 + yz\right)(2 - 2yz + y^2 z^2) \leq 2$ ekanligini ko'rsatish yetarli. Bu tengsizlikning chap tomonidagi qavslarni ochib ixchamlash natijasida $y^3 z^3 \leq y^2 z^2$ yoki $yz \leq 1$ ni xosil qilamiz, bundan esa $x + y + z - xyz \leq 2$ tengsizlik isbotlandi.

34. $\frac{1}{x\sqrt{2}}=a,\ \frac{1}{y\sqrt{3}}=b,\ \frac{1}{2z}=c$ deb belgilash kiritsak, u holda

$Q(a,b,c)=2a^2+6b^2+12c^2$ ifodaning eng katta qiymatini topsak masala yechiladi. a,b,c musbat sonlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\max\{a,b,\}<c\le\frac{1}{2} \qquad (1)$$

$$c\sqrt{2}+a\sqrt{3}\ge 2\sqrt{6}ac \qquad (2)$$

$$c\sqrt{2}+b\sqrt{5}\ge 2\sqrt{10}bc \qquad (3)$$

(2) dan

$$\frac{\sqrt{2}}{a}+\frac{\sqrt{3}}{c}\ge 2\sqrt{6}\Rightarrow\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\ge 12\Rightarrow\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)\ge 2a^2,$$

Bundan

$$a^2+c^2=2a^2+c^2-a^2\le\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)+c^2\left(1-\frac{a^2}{c^2}\right)\le\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)+\frac{1}{2}\left(1-\frac{a^2}{c^2}\right)=\frac{5}{6}$$

Xuddi shunday (1) va (3) dan $b^2+c^2\le\frac{7}{10}$ ekanligini topamiz.

Shunday qilib, $Q(a,b,c,)=2(a^2+c^2)+6(b^2+c^2)+4c^2\le\frac{118}{15}$

Tenglik $Q(a,b,c)=Q\left(\frac{1}{\sqrt{3}},\frac{1}{\sqrt{5}},\frac{1}{\sqrt{2}}\right)=\frac{118}{15}$ bajariladi va $a=\frac{1}{\sqrt{3}},\ b=\frac{1}{\sqrt{5}},\ c=\frac{1}{\sqrt{2}}$

qiymatlar (1)-(2)-(3) shartlarni qanoatlantiradi.

Bundan $\max P(x,y,z)=\max Q(a,b,c)=\frac{118}{15}$.

35. $a+b=x,\ \ b+c=y,\ \ c+a=t$ belgilash kiritsak yuqoridagi tengsizlik quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\frac{2(x+t)^2}{(x+t-y)^2+2y^2}+\frac{2(y+t)^2}{(y+t-x)^2+2x^2}+\frac{2(x+y)^2}{(x+y-t)^2+2t^2}\le 8 \quad (*)$$

Ushbu $2(t^2+p^2)\ge(t+p)^2$ tengsizlikdan foydalansak,

$$\frac{4(x+t)^2}{(2(x+t-y)^2+2y^2)+2y^2}+\frac{4\left(y+t\right)^2}{(2(y+t-x)^2+2x^2)+2x^2}+\frac{4\left(x+y\right)^2}{(2(x+y-t)^2+2t^2)+2t^2}\le$$

$$\le\frac{4\left(x+t\right)^2}{(x+t)^2+2y^2}+\frac{4\left(y+t\right)^2}{(y+t)^2+2x^2}+\frac{4\left(x+y\right)^2}{(x+y)^2+2t^2}=$$

$$=\frac{4}{1+\frac{2y^2}{(x+t)^2}}+\frac{4}{1+2\frac{2x^2}{(y+t)^2}}+\frac{4}{1+2\frac{t^2}{(x+y)^2}}\le\frac{4}{1+\frac{y^2}{x^2+t^2}}+\frac{4}{1+\frac{x^2}{y^2+t^2}}+\frac{4}{1+\frac{t^2}{x^2+y^2}}=$$

$$=\frac{4\left(x^2+t^2\right)}{x^2+y^2+t^2}+\frac{4\left(y^2+t^2\right)}{x^2+y^2+t^2}+\frac{4\left(x^2+y^2\right)}{x^2+y^2+t^2}=8.$$

Bundan (*) isbotlandi.

36. O’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo’llaymiz:

$$\frac{0,6}{\sqrt{0,36(a+\frac{1}{b}+0,64)}}+\frac{0,6}{\sqrt{0,36(b+\frac{1}{c}+0,64)}}+\frac{0,6}{\sqrt{0,36(c+\frac{1}{a}+0,64)}}\ge$$

$$\ge1,2\left(\frac{1}{a+\frac{1}{b}+1}+\frac{1}{b+\frac{1}{c}+1}+\frac{1}{c+\frac{1}{a}+1}\right)=1,2$$

Chunki

$$\frac{1}{a+\frac{1}{b}+1}+\frac{1}{b+\frac{1}{c}+1}+\frac{1}{c+\frac{1}{a}+1}=\frac{1}{ab+b+1}+\frac{1}{bc+c+1}+\frac{1}{ac+a+1}=$$

$$=\frac{ac}{ac(ab+b+1)}+\frac{a}{a(bc+c+1)}+\frac{1}{ac+a+1}=\frac{ac}{a+ac+1}+\frac{a}{1+ac+a}+\frac{1}{ac+a+1}=1$$

37. Bu tengsizlikni shakl almashtirish natijasida

$$\left(z-\frac{y+1}{(x+1)y}\right)+\left(x-\frac{z+1}{(y+1)z}\right)+\left(y-\frac{x+1}{(z+1)x}\right)\geq 0 \quad \text{yoki}$$

$\frac{x+z}{x+1}+\frac{x+y}{y+1}+\frac{y+z}{z+1}\geq 3$ (*)ga teng kuchli tengsizlikka olib kelamiz.

Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligiga ko'ra $x+1\leq\sqrt{(x+xy)(x+z)}$

munosabat o'rinli. Bundan $x+z\geq\frac{(x+1)^2}{x(1+y)}$ yoki $\frac{x+z}{x+1}\geq\frac{x+1}{x(1+y)}$ munosabatni

hosil qilamiz. Demak

$$\frac{x+z}{x+1}+\frac{x+y}{y+1}+\frac{z+y}{z+1}\geq\frac{x+1}{x(1+y)}+\frac{1+y}{y(1+z)}+\frac{1+z}{z(1+x)}\geq$$
$$\geq 3\sqrt[3]{\frac{x+1}{x(1+y)}\cdot\frac{1+y}{y(1+z)}\cdot\frac{1+z}{z(1+x)}}=3$$

38. Avval $\forall t>0$ uchun $3(t^2-t+1)^3\geq t^6+t^3+1$ (*) tengsizlik o'rinli ekanligini ko'rsatamiz. (*) ni shakl almashtirib, quyidagi munosabatni hosil qilamiz: $(t-1)^4(2t^2-t+2)\geq 0$ bu tengsizlik $\forall t>0$ uchun o'rinli. Bundan

$3(x^2-x+1)^3 3(y^2-y+1)^3 3(z^2-z+1)^3\geq(x^6+x^3+1)(y^6+y^3+1)(z^6+z^3+1)$ (**)

munosabatni hosil qilamiz. Umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llasak,

$(x^6+x^3+1)(y^6+y^3+1)(z^6+z^3+1)\geq(x^2y^2z^2+xyz+1)^3$ (***)

(**) va (***) larni hadma-had ko'paytirib, isboti talab etilgan tengsizlikni hosil qilamiz.

39. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini qo'llaymiz:

$$1+\left(1-\frac{1}{2}\right)+\left(1-\frac{1}{3}\right)+...+\left(1-\frac{1}{n}\right)=1+\frac{1}{2}+\frac{2}{3}+\frac{3}{4}+...+\frac{n-1}{n}\geq n\sqrt[n]{1\cdot\frac{1}{2}\cdot\frac{2}{3}\cdot\frac{3}{4}...\frac{n-1}{n}}=$$

$$=n\sqrt[n]{\frac{1}{n}}=n^{\frac{n-1}{n}}.$$

40. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llab,

$$\sqrt{x-1}+\sqrt{y-1}+\sqrt{z-1}\leq\sqrt{x+y+z}\cdot\sqrt{\frac{x-1}{x}+\frac{y-1}{y}+\frac{z-1}{z}}=\sqrt{x+y+z}$$

munosabatni hosil qilamiz.

41. Berilgan tengsizlikdan $(a^3+b^3+c^3)(a+b+c)\geq 9a^2b^2c^2=(a^2+b^2+c^2)^2$ tengsizlikni hosil qilamiz. Bu tengsizlik esa Koshi - Bunyakovskiy tengsizligiga ko'ra o'rinlidir.

42. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar o'rtasidagi munosabatni quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$\frac{1}{(x+y+t)^2}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{y^2}+\frac{1}{z^2}=\frac{1}{9}\left(\frac{9}{(x+y+z)^2}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{y^2}+\frac{1}{z^2}\right)+\frac{8}{9}\left(\frac{1}{x^2}+\frac{1}{y^2}+\frac{1}{z^2}\right)\geq$$

$$\geq\frac{4}{9}\sqrt[4]{\frac{9}{(x+y+z)^2x^2y^2z^2}}+\frac{8}{3}\sqrt[3]{\frac{1}{x^2y^2z^2}}\geq\frac{4}{9}\sqrt{\frac{3}{(x+y+z)xyz}}+\frac{8}{3}\sqrt{\frac{3}{xyz(x+y+z)}}=$$

$$=\frac{28\sqrt{3}}{9\sqrt{xyz(x+y+z)}}$$

43. $d_k=|n-a_k|$ belgilash kiritsak, u holda

$$\sum_{k=1}^{n}d_k^2=\sum_{k=1}^{n}\left(n-a_k\right)^2=n\cdot n^2-2n\sum_{k=1}^{n}a_k+\sum_{k=1}^{n}a_k^2\leq n^3-2n\cdot n^2+n^3+1=1$$

munosabatni hosil bo'ladi. Bundan $d_k\leq 1$ yoki $n-1\leq a_k\leq n+1$.

44. Tengsizlikni ikkala qismini $a+b+c$ ga bo'lib va

$x=\frac{a}{a+b+c},\ y=\frac{b}{a+b+c},\ z=\frac{c}{a+b+c}$ belgilash kiritsak

$$\alpha x+\beta y+\gamma z+2\sqrt{\left(\alpha\beta+\beta\gamma+\gamma\alpha\right)\left(xy+yz+zx\right)}\le\frac{\alpha^2}{2}+\frac{x^2}{2}+\frac{\beta^2}{2}+\frac{y^2}{2}+\frac{z^2}{2}+\frac{\gamma^2}{2}+$$

$$+\gamma\alpha+\alpha\beta+\beta\gamma+xy+yz+zx=\frac{1}{2}\left(\alpha+\beta+\gamma\right)^2+\frac{1}{2}\left(x+y+z\right)^2=\frac{1}{2}+\frac{1}{2}=1.$$

45. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$\frac{1}{a^3}+\frac{1}{3ab^2}+\frac{1}{3a^2b}+\frac{1}{b^3}=(\frac{1}{a^3}+\frac{1}{b^3})+\frac{1}{3ab}\left(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}\right)\ge2\sqrt{\frac{1}{a^3b^3}}+\frac{2}{3ab}\sqrt{\frac{1}{ab}}=\frac{8}{3\sqrt{(ab)^3}}\ge$$

$$\ge\frac{64}{3(a+b)^3}$$

46. $x_1,x_2....x_6\in\left[0;1\right]$ ekanligidan tengsizlikning chap qismi quyidagi ifodadan kichik yoki teng

$$\frac{x_1^3}{x_1^5+x_2^5+.....+x_6^5+4}+\frac{x_2^3}{x_1^5+x_2^5+......+x_6^5+4}+...+\frac{x_6^3}{x_1^5+x_2^5+.....+x_6^5+4}=$$

$$=\frac{x_1^3+x_2^3+...+x_6^3}{x_1^5+x_2^5+...+x_6^5+4}\le\frac{3}{5}.(*)$$

Ixtiyoriy $t\ge0$ uchun $3t^5+2\ge5t^3\Leftrightarrow\left(t-1\right)^2\left(3t^3+6t^2+4t+2\right)\ge0$ munosabat o'rinli ekanligidan foydalansak (*) kelib chiqadi.

47. Tengsizlikni chap qismini S bilan belgilab, Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llab,

$S\cdot\left(a^2\left(1+2bc\right)+b^2(1+2ac)+c^2(1+2ab)\right)\ge(a^2+b^2+c^2)^2$ yoki

$$S\ge\frac{1}{1+2abc(a+b+c)}$$

munosabatni hosil qilamiz. $a^2+b^2+c^2 \geq \sqrt{3abc(a+b+c)}$ tengsizlikka ko'ra

$$S \geq \frac{1}{1+\frac{2}{3}3abc(a+b+c)} \geq \frac{1}{1+\frac{2}{3}\left(a^2+b^2+c^2\right)^2} = \frac{3}{5}$$

ekanligini hosil qilamiz.

48. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llab,

$$\left(\frac{i(i-1)}{2}\right)^2 \cdot x_i^2 \geq \left(x_1^2+\frac{x_2^2}{2^3}+\frac{x_3^2}{3^3}+\ldots+\frac{x_{i-1}^2}{(i-1)^3}\right)\left(1+2^3+3^3+\ldots+(i-1)^3\right) \geq$$

$$\geq \left(x_1+x_2+x_3+\ldots+x_{i-1}\right)^2 \text{ ёки } \frac{x_i}{x_1+x_2+\ldots+x_{i-1}} \geq \frac{2}{i(i-1)}, \quad 2 \leq i \leq 2001$$

ekanligini topamiz. Bundan

$$\sum_{i=2}^{2001} \frac{x_i}{x_1+x_2+\ldots+x_{i-1}} \geq 2\left(\frac{1}{1\cdot 2}+\frac{1}{2\cdot 3}+\ldots+\frac{1}{2000\cdot 2001}\right) = 2\left(1-\frac{1}{2001}\right) > 1{,}999.$$

49. Tengsizlikni $\left(\frac{a}{b}-\frac{c+a}{c+b}+1\right)+\left(\frac{b}{c}-\frac{a+b}{a+c}+1\right)+\left(\frac{c}{a}-\frac{b+c}{b+a}+1\right) \geq 3$ yoki

$\frac{b^2+ac}{b(c+b)}+\frac{c^2+ab}{c(a+c)}+\frac{a^2+bc}{a(b+a)} \geq 3$ kurinishda yozamiz.Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llasak,

$$\frac{b^2+ac}{b(c+b)}+\frac{c^2+ab}{c(a+c)}+\frac{a^2+bc}{a(a+b)} \geq \frac{(b+c)a}{b(a+c)}+\frac{b(a+c)}{c(a+b)}+\frac{c(a+b)}{a(b+c)} \geq$$

$$\geq 3\sqrt[3]{\frac{(b+c)a}{b(a+c)}\cdot\frac{b(a+c)}{c(a+b)}\cdot\frac{c(a+b)}{a(b+c)}} = 3.$$

50. Avval tengsizlikni induktsiya metodi yordamida $n=2^k, k \in N$ sonlar uchun isbotlaymiz. $n=2$ da

$$\frac{1}{y_1+1}+\frac{1}{y_2+1}-\frac{2}{\sqrt{y_1y_2}+1} = \frac{\left(\sqrt{y_1y_2}-1\right)\left(\sqrt{y_1}-\sqrt{y_2}\right)^2}{(y_1+1)(y_2+1)(\sqrt{y_1y_2}+1)} \geq 0$$

$n=2^k$ da tengsizlik o'rinli bo'lsin deb faraz qilsak, u holda $n=2^{k+1}$ da

$$\left(\frac{1}{1+y_1}+\frac{1}{1+y_2}+...+\frac{1}{1+y_{2^k}}\right)+\left(\frac{1}{1+y_{2^k+1}}+\frac{1}{1+y_{2^k+2}}+....+\frac{1}{1+y_{2^{k+1}}}\right)\geq$$

$$\geq\frac{2^k}{1+\sqrt[2^k]{y_1y_2...y_{2^k}}}+\frac{2^k}{1+\sqrt[2^k]{y_{2^k+1}y_{2^k+2}...y_{2^{k+1}}}}\geq\frac{2^{k+1}}{1+\sqrt[2^{k+1}]{y_1\cdot y_2....y_{2^{k+1}}}}$$

munosabat o'rinli va tengsizlik $n=2^k,\ k\in N,$ uchun isbotlandi. Endi tengsizlikni $n\in N$ uchun isbotlaymiz. Buning uchun $m=2^k>n, k\in N,$ uchun tengsizlik o'rinli deb faraz etsak va $y_{n+1}=y_{n+2}=....=y_m=\sqrt[n]{y_1y_2..y_n}$ deb olsak, u holda

$$\frac{1}{y_1+1}+\frac{1}{y_2+1}+...+\frac{1}{y_n+1}+\frac{m-n}{1+\sqrt[n]{y_1y_2...y_n}}\geq\frac{m}{\sqrt[n]{y_1y_2...y_n}+1}$$

bo'ladi. Bundan yuqoridagi tengsizlik isbotlanadi.

51. $x_i=\cos^2\alpha_i$, $\frac{\pi}{4}\leq\alpha_i<\frac{\pi}{2}$ belgilash kiritsak, u holda tengsizlik

$$\frac{\prod_{i=1}^{n}\cos^2\alpha_i}{\prod_{i=1}^{n}(1-\cos^2\alpha_i)}\leq\left(\frac{\sum_{i=1}^{n}\cos^2\alpha_i}{\sum_{i=1}^{n}(1-\cos^2\alpha_i)}\right)^n$$

ko'rinishga, yoki

$$\frac{1}{1+tg^2\alpha_1}+\frac{1}{1+tg^2\alpha_2}+...+\frac{1}{1+tg^2\alpha_n}\geq\frac{n}{1+\sqrt[n]{tg^2\alpha_1tg^2\alpha_2...tg^2\alpha_n}}$$

ko'rinishga keladi. Agar $tg^2\alpha_i=y_i$ deb belgilash kiritsak, $y_i\geq1$ bo'ladi va $\frac{1}{1+y_1}+\frac{1}{1+y_2}+...\frac{1}{1+y_n}\geq\frac{n}{1+\sqrt[n]{y_1y_2...y_n}}$ ni isbotlash kerak bo'ladi.Bu tengsizlik esa 50- masalada isbotlangan.

52. Tengsizlikni musbat $x_1,x_2,...,x_n$ sonlar uchun isbotlash yetarli. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llab,

$$\frac{x_1}{1+x_1^2}+\frac{x_2}{1+x_1^2+x_2^2}+....+\frac{x_n}{1+x_1^2+x_2^2+...+x_n^2}<$$

$$<\sqrt{n\left(\left(\frac{x_1}{1+x_1^2}\right)^2+\left(\frac{x_2}{1+x_1^2+x_2^2}\right)^2+...+\left(\frac{x_n}{1+x_1^2+...+x_n^2}\right)^2\right)}$$

munosabatni hosil qilamiz. Bundan

$$\frac{x_1^2}{(1+x_1^2)^2}+\frac{x_2^2}{(1+x_1^2+x_2^2)^2}+..+\frac{x_n^2}{(1+x_1^2+x_2^2+...+x_n^2)^2}<1$$

ekanligini ko’rsatsak, yuqoridagi tengsizlik isbotlanadi.

$$\frac{{x_k}^2}{\left(1+x_1^2+x_2^2+...+x_k^2\right)}\le\frac{x_k^2}{(1+x_1^2+x_2^2+...+x_{k-1}^2)(1+x_1^2+...+x_k^2)}=$$

$$=\frac{1}{1+x_1^2+...+x_{k-1}^2}-\frac{1}{1+x_1^2+...+x_k^2}$$

bo’lgani uchun

$$\sum_{k=1}^{n}\left(\frac{x_k}{1+x_1^2+...+x_k^2}\right)^2<1-\frac{1}{1+x_1^2+...+x_n^2}<1.$$

53. $9(a^3+b^3+c^3)\ge(a+b+c)^3$ tengsizlikdan foydalanib,

$$\sqrt[3]{\frac{1}{a}+6b}+\sqrt[3]{\frac{1}{b}+6c}+\sqrt[3]{\frac{1}{c}+6a}\le\sqrt[3]{9\left(\frac{1}{a}+6b+\frac{1}{b}+6c+\frac{1}{c}+6a\right)}=$$

$$=\frac{3}{\sqrt[3]{3}}\sqrt[3]{\frac{1}{abc}+3\frac{1-ab}{c}+3\frac{1-bc}{a}+3\frac{1-ac}{b}}=\frac{3}{\sqrt[3]{3}}\sqrt[3]{\frac{4-3\left((ab)^2+(bc)^2+(ca)^2\right)}{abc}}\le$$

$$\le\frac{3}{\sqrt[3]{3}}\sqrt[3]{\frac{4-3\frac{(ab+bc+ca)^2}{3}}{abc}}=\frac{3}{\sqrt[3]{abc}}$$

munosabatni hosil qilamiz.Endi $\frac{3}{\sqrt[3]{abc}}\le\frac{1}{abc}$ yoki $a^2b^2c^2\le\frac{1}{27}$ ekanligi

ko’rsatamiz: $(abc)^2=(ab)(bc)(ca)\le\left(\frac{ab+bc+ca}{3}\right)^3=\frac{1}{27}$.

54. $1-bc=a(b+c)$ ekanligidan

$$3abcx=3a\sqrt[3]{b^2c\cdot c^2b\cdot x^3}\le a(b^2c+c^2b+x^3)=ax^3+bc(1-bc)=$$

$$=ax^3+bc\left(\frac{2}{3}-bc\right)+\frac{1}{3}bc\le ax^3+\frac{1}{3}bc+\left(\frac{bc+(\frac{2}{3}-bc)}{2}\right)^2=ax^3+\frac{1}{3}bc+\frac{1}{9}$$

munosabatni hosil qilamiz. Xuddi shunday

$$3abcy\le by^3+\frac{1}{3}ac+\frac{1}{9},\ 3abcz\le cz^3+\frac{1}{3}ab+\frac{1}{9}$$

tengsizliklar o'rinli.bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib isboti talab etilgan tengsizlikni hosil qilamiz.

55. Tengsizlikni ikkala qismiga umumiy maxraj tanlab,

$$\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i}-\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{1+a_i}\ge\frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i}\cdot\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{1+a_i}\quad \text{yoki}\quad n\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i(a_i+1)}\ge\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{1+a_i}\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i}$$

munosabatni hosil qilamiz. Umumiylikni chegaralamasdan $a_1\ge a_2\ge...\ge a_n$ deb olsak, oxirgi tengsizlik Chebishev tengsizligia ko'ra o'rinlidir.

56. $a_1+a_2+....+a_{n-1}=k$ deb olamiz. U holda isboti talab etilgan tengsizlikka teng kuchli bo'lgan

$$\frac{a_0+k+a_n}{n+1}\cdot\frac{k}{n-1}\ge\frac{a_0+k}{n}\cdot\frac{a_n+k}{n}\Leftrightarrow$$
$$n^2k(a_0+a_n+k)\ge(n^2-1)(a_0+k)(a_n+k)\Leftrightarrow k(k+a_0+a_n)\ge a_0a_n(n^2-1).$$

tengsizlikni hosil qilamiz. $a_0+a_n\ge2\sqrt{a_0a_n}$ ekanligidan $k\ge\left(n-1\right)\sqrt{a_0a_n}$ tengsizlikni isbotlasak yuqoridagi tengsizlik isbotlandi.

$a_{i-1}\cdot a_{i+1}\le a_i^2\quad(i=1,2,....,n-1)$ tengsizlikka ko'ra $\frac{a_0}{a_1}\le\frac{a_1}{a_2}\le\frac{a_2}{a_3}\le...\le\frac{a_{n-1}}{a_n}$ yoki $a_0a_n\le a_1a_{n-1}\le a_2a_{n-2}\le......$ munosabatni hosil qilamiz. Bundan,

$$K = a_1 + a_2 + ... + a_{n-1} = (a_1 + a_{n-1}) + (a_2 + a_{n-2}) + ... \geq 2\sqrt{a_1 a_{n-1}} +$$

$$+2\sqrt{a_2 a_{n-2}} + ... \geq 2\sqrt{a_0 a_n} + 2\sqrt{a_0 a_n} + ... = 2 \cdot \frac{n-1}{2}\sqrt{a_0 a_n} = (n-1)\sqrt{a_0 a_n}$$

ekanligi kelib chiqadi.

57. Umumiylikni chegaralamasdan $a \leq b \leq c$ deb olamiz. U holda o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llab,

$$8abc = 8ab(1-a-b) \leq 2(a+b)^2(1-a-b) = 2(a+b)\left[(a+b)(1-a-b)\right] \leq \frac{a+b}{2}$$

tengsizlikni topamiz. $(a-c)(x-\frac{1}{2}) + (b-c)(y-\frac{1}{2}) \geq 0$ munosabat o'rinli ekanligidan $ax + by + cz \geq \frac{a+b}{2} \geq 8abc$ tengsizlikni to'g'riligini topamiz.

58. $x_{n+1} = 1 - x_1 - x_2 - ... - x_n$ bo'lsin. U holda $x_{n+1} > 0$ va o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llasak

$$1 - x_i = x_1 + x_2 + ... + x_{n+1} - x_i \geq n\sqrt[n]{\frac{x_1 x_2 ... x_{n+1}}{x_i}} \quad (i = 1, 2, ..., n+1)$$ munosabatni olamiz.

Bu tengsizliklarni hadma-had ko'paytirib,

$$\prod_{i=1}^{n+1}(1-x_i) \geq \prod_{i=1}^{n+1} n\sqrt[n]{\frac{x_1 x_2 ... x_{n+1}}{x_i}} = n^{n+1} x_1 x_2 ... x_n x_{n+1} = n^{n+1} x_1 x_2 ... x_n (1 - x_1 - x_2 - ... - x_n)$$

yoki $(1-x_1)(1-x_2)...(1-x_n)(x_1 + x_2 + ... + x_n) \geq n^{n+1} x_1 x_2 ... x_n (1 - x_1 - x_2 ... - x_n)$ tengsizlikni hosil qilamiz.

59. Umumiylikni chegaralamasdan $0 \leq a \leq b \leq c \leq 1$ deb olamiz. U holda $(1-a)(1-b) \geq 0$ yoki $a + b + c \leq a + b + 1 \leq 2 + ab$<2(1+ab) ekanligini topamiz.

Bundan,

$$\frac{a}{bc+1} + \frac{b}{ac+1} + \frac{c}{ab+1} \leq \frac{a}{ab+1} + \frac{b}{ab+1} + \frac{c}{ab+1} = \frac{a+b+c}{ab+1} < \frac{2(ab+1)}{ab+1} = 2$$

munosabatni hosil qilamiz.

60. $b(a-1)+a(c-1)\geq 0 \Leftrightarrow ab+ac\geq b+a \Leftrightarrow \dfrac{a+b}{b+c}\leq a$ va

$d(c-1)+c(a-1)\geq 0 \Leftrightarrow dc+ca\geq d+c \Leftrightarrow \dfrac{d+c}{d+a}\leq c$ ekanligi rashan. Bundan

$$\frac{4(a+c)}{(b+d)}\geq \frac{4(a+c)}{4}=a+c\geq \frac{a+b}{b+c}+\frac{d+c}{d+a}$$

munosabat o'rinli ekanligi kelib chiqadi.

61. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llab $\sqrt{\dfrac{a}{b+c-ta}}=\dfrac{a\sqrt{1+t}}{\sqrt{(a+at)(b+c-ta)}}\geq \dfrac{2a\sqrt{t+1}}{a+b+c}$ tengsizlikni topamiz. Xuddi shunday $\sqrt{\dfrac{b}{a+c-tb}}\geq \dfrac{2b\sqrt{1+t}}{a+b+c}$, $\sqrt{\dfrac{c}{a+b-tc}}\geq \dfrac{2c\sqrt{1+t}}{a+b+c}$ tengsizliklar o'rinli. Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib, isboti talab etilgan tengsizlikni hosil qilamiz.

62. $(ab+1-c)^2+(bc+1-a)^2+(ac+1-b)^2\geq 0$ ekanligidan, yuqoridagi tengsizlikni o'rinli bo'lishi kelib chiqadi.

63. $\dfrac{1}{1+x_i^2}=y_i$ $(\mathrm{i}=1,2,\ \ldots,2002)$ deb belgilash kiritsak, u holda $y_1+y_2+\ldots+y_{2002}=1$ bo'ladi. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llasak, $1-y_i=y_1+y_2+\ldots+y_{2002}-y_i\geq 2001\sqrt[2001]{\dfrac{y_1y_2\ldots y_{2002}}{y_i}}$

$(i=1,2,\ \ldots\ 2002)$

ekanligini topamiz va bu tengsizliklarni hadma-had ko'paytirib

$$\prod_{i=1}^{2002}(1-y_i)\geq \prod_{i=1}^{2002}2001\sqrt[2001]{\frac{y_1y_2\ldots y_{2002}}{y_i}}=2001^{2002}y_1y_2\ldots y_{2002},\quad \prod_{i=1}^{2002}\frac{1-y_i}{y_i}\geq 2001^{2002}$$

yoki $\prod_{i=1}^{2002} x_i \geq 2001^{1001}$ tengsizlikni hosil qilamiz.

64. Musbat x, y, z va v sonlar uchun $\frac{x^2}{y}+\frac{z^2}{v}\geq\frac{(x+z)^2}{y+v}$ tengsizlik o'rinli ekanligidan foydalansak

$$\frac{1}{1+ab}+\frac{1}{1+bc}+\frac{1}{1+ac}\geq\frac{(1+1)^2}{1+ab+1+bc}+\frac{1}{1+ac}\geq\frac{(1+1+1)^2}{3+ab+bc+ca}\geq .$$
$$\geq\frac{9}{3+a^2+b^2+c^2}=\frac{3}{2}$$

65. Tengsizlikni chap tomonini T bilan belgilab, o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini qo'llasak, u holda

$$T=\left(\frac{ax}{\sqrt{ac}}+\frac{by}{\sqrt{ac}}+\frac{cz}{\sqrt{ac}}\right)\left(\frac{x\sqrt{ac}}{a}+\frac{y\sqrt{ac}}{b}+\frac{z\sqrt{ac}}{c}\right)\leq$$
$$\leq\frac{1}{4}\left(\left(\frac{ax}{\sqrt{ac}}+\frac{x\sqrt{ac}}{a}\right)+\left(\frac{by}{\sqrt{ac}}+\frac{y\sqrt{ac}}{b}\right)+\left(\frac{cz}{\sqrt{ac}}+\frac{z\sqrt{ac}}{c}\right)\right)^2$$

tengsizlik hosil bo'ladi. Ushbu tengsizliklar o'rinli ekanligidan

$$x\left(\frac{a}{\sqrt{ac}}+\frac{\sqrt{ac}}{a}\right)\leq x\frac{a+c}{\sqrt{ac}},\ y\left(\frac{b}{\sqrt{ac}}+\frac{\sqrt{ac}}{b}\right)\leq y\frac{a+c}{\sqrt{ac}},\ z\left(\frac{c}{\sqrt{ac}}+\frac{\sqrt{ac}}{c}\right)\leq z\frac{a+c}{\sqrt{ac}}.$$

bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib

$$S\leq\frac{1}{4}\left(\frac{a+c}{\sqrt{ac}}(x+y+z)\right)^2=\frac{(a+c)^2}{4ac}(x+y+z)^2$$

munosabatni hosil qilamiz.

66. x>0, y>0 $\frac{1}{x+y} \le \frac{1}{4}\left(\frac{1}{x}+\frac{1}{y}\right)$ tengsizlik o’rinli va bu tengsizlikni qo’llab,

$$\frac{ab}{a+b+2c}+\frac{bc}{b+c+2a}+\frac{ac}{a+c+2b} \le \frac{ab}{4}\left(\frac{1}{a+c}+\frac{1}{b+c}\right)+\frac{bc}{4}\left(\frac{1}{a+c}+\frac{1}{b+a}\right)+$$
$$+\frac{ac}{4}\left(\frac{1}{a+b}+\frac{1}{b+c}\right)=\frac{1}{4(a+c)}(ab+bc)+\frac{1}{4(b+c)}(ab+ac)+\frac{1}{4(a+b)}(ac+bc)=$$
$$=\frac{1}{4}(a+b+c)$$

munosabatni hosil qilamiz.

67. Musbat x, y sonlar uchun $\frac{x^4+y^4}{x^3+y^3} \ge \frac{x+y}{2}$ (*) tengsizlik o’rinli. Chunki

$$2(x^4+y^4) \ge (x+y)(x^3+y^3) \Leftrightarrow x^4+y^4 \ge x^3y+y^3x \Leftrightarrow (x-y)^2(x^2+xy+y^2) \ge 0.$$

Endi (*)dan foydalansak,

$$\frac{a^4+b^4}{ab(a^3+b^3)}+\frac{b^4+c^4}{bc(b^3+c^3)}+\frac{c^4+a^4}{ac(a^3+c^3)} \ge \frac{a+b}{2ab}+\frac{b+c}{2bc}+\frac{a+c}{2ac}=\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}=1$$

munosabat hosil bo’ladi.

68. O’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini

qo’llab, $a+b+c+d+\underbrace{\frac{1}{32abcd}+...+\frac{1}{32abcd}}_{32ma} \ge 36\sqrt[36]{abcd\left(\frac{1}{32abcd}\right)^{32}}$

munosabatni topamiz.

Endi $36\sqrt[36]{abcd\left(\frac{1}{32abcd}\right)^{32}} \ge 18 \Leftrightarrow 2\sqrt[36]{abcd\left(\frac{1}{32abcd}\right)^{32}} \ge 1 \Leftrightarrow$

$\Leftrightarrow 2^{36}abcd\left(\frac{1}{32abcd}\right)^{32}=\frac{2^{36}}{2^{160}(abcd)^{31}} \ge 1 \Leftrightarrow (abcd) \le \frac{1}{2^4}$ tengsizlikni isbotlasak

masala yechiladi. O’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini berilgan tenglikka qo’llab,

$1=a^2+b^2+c^2+d^2\geq 4\sqrt[4]{a^2b^2c^2d^2}=4\sqrt{abcd}\Leftrightarrow\ abcd\leq\dfrac{1}{2^4}$ ekanligini topamiz.

69. Berilgan tengsizlikni chap qismidagi qavslarni ochib o’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini qo’llaymiz. U holda

$$(x^2+2)(y^2+2)(z^2+2)=x^2y^2z^2+2(x^2y^2+y^2z^2+z^2x^2)+4(x^2+y^2+z^2)+8=$$
$$=2(x^2y^2+1)+2(y^2z^2+1)+2(z^2x^2+1)+3(x^2+y^2+z^2)+x^2y^2z^2+2+x^2+y^2+z^2\geq$$
$$\geq 4(xy+yz+zx)+3(xy+yz+zx)+(x^2+y^2+z^2)+2+x^2y^2z^2=$$
$$=x^2y^2z^2+x^2+y^2+z^2+2+7(xy+yz+zx)$$

ekanligini topamiz. Bundan $x^2y^2z^2+x^2+y^2+z^2+2\geq 2xy+2yz+2zx$ (*) tengsizlikni isbotlasak masala yechiladi.

Lemma: Istalgan *a, b, c* musbat sonlar uchun quyidagi

$(a+b-c)(b+c-a)(a+c-b)\leq abc$

tengsizlik o’rinli.

Isboti: Aytaylik *a+b-c=m, b+c-a=n, a+c-b=k* bo’lsin, bundan $a=\dfrac{m+n}{2}$, $b=\dfrac{m+n}{2}$, $c=\dfrac{k+n}{2}$ tengliklarni topamiz. U holda $8mnk\leq(m+n)(n+k)(m+k)$ ekanligini ko’rsatish yetarli. Bu tengsizlikni ushbu: $m+n\geq 2\sqrt{mn}$, $n+k\geq 2\sqrt{nk}$, $m+k\geq 2\sqrt{mk}$ tengsizliklarni hadma-had ko’paytirish natijasida hosil qilamiz.

$$(a+b-c)(b+c-a)(a+c-b)\leq abc\Leftrightarrow 3abc+a^3+b^3+c^3\geq$$
$$\geq ab(a+b)+bc(b+c)+ca(c+a)\geq 2(ab)^{\frac{3}{2}}+2(bc)^{\frac{3}{2}}+2(ca)^{\frac{3}{2}}.$$

Oxirgi tengsizlik istalgan a, b, c musbat sonlar uchun o’rinli ekanligidan, quyidagicha $a=x^{\frac{2}{3}}$, $b=y^{\frac{2}{3}}$, $c=z^{\frac{2}{3}}$ belgilash olamiz. Bundan

$3(xyz)^{\frac{2}{3}}+x^2+y^2+z^2\geq 2xy+2yz+2zx$ tengsizlikni hosil qilamiz. Bu yerdan quyidagi $2xy+2yz+2zx\leq x^2+y^2+z^2+3(xyz)^{\frac{2}{3}}\leq x^2+y^2+z^2+(xyz)+2$ munosabatni, ya’ni (*) to’g’ri ekanligini topamiz.

70. Berilgan tengsizlikni chap qismini S bilan belgilab, quyidagi usulda Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llaymiz:

$$S=\left(\sum_{i=1}^{n}\left(\frac{\sqrt{a_i}}{a_i^2+x^2}\right)\left(\frac{1}{\sqrt{a_i}}\right)\right)^2\le\left(\sum_{i=1}^{n}\frac{a_i}{\left(a_i^2+x^2\right)^2}\right)\left(\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i}\right)\le\sum_{i=1}^{n}\frac{a_i}{\left(a_i^2+x^2\right)^2}.$$

Bizga ma'lumki $\left(a_i^2+x^2\right)^2>\left(a_i^2+x^2\right)^2-a_i^2>0$ (i=1, 2, …, n). Bundan

$\sum_{i=1}^{n}\frac{a_i}{\left(a_i^2+x^2\right)^2}<\frac{1}{2}\sum_{i=1}^{n}\left(\left(\frac{1}{a_i^2+x^2-a_i}\right)-\left(\frac{1}{a_i^2+x^2+a_i}\right)\right)$. Berilgan shartdan

$a_{i+1}\ge a_i+1$ yekanligini topamiz. Bundan $a_{i+1}^2-a_{i+1}+x^2\ge a_i^2+a_i+x^2$ va

$$\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{\left(a_i^2+x^2-a_i\right)}\le\frac{1}{\left(a_1^2+x^2-a_1\right)}+\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{\left(a_i^2+x^2+a_i\right)}-\frac{1}{a_n^2+x^2+a_n}\le\frac{1}{a_1^2+x^2-a_1}+$$

$$+\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{\left(a_i^2+x^2+a_i\right)}\Leftrightarrow\frac{1}{2}\sum_{i=1}^{n}\left(\left(\frac{1}{a_i^2+x^2-a_i}\right)-\left(\frac{1}{a_i^2+x^2+a_i}\right)\right)\le\frac{1}{2a_1^2+2x^2-2a_1}$$

yoki $S\le\frac{1}{2a_1^2-2a_1+2x^2}$ munosabatni hosil qilamiz.

71. Quyidagi tenglikni qaraymiz $\left(x+y+z\right)^2=9$ yoki

$xy+yz+zx=\frac{9-x^2-y^2-z^2}{2}$. Bundan o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini qo'llab,

$$xy+yz+zx=\frac{3x-x^2}{2}+\frac{3y-y^2}{2}+\frac{3z-z^2}{2}\le\sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z}$$

munosabatni hosil qilamiz.

72. *a* va *b* sonlar musbat va butun ekanligidan, $a\sqrt{2}\ne b$ yoki $2a^2\ne b^2$ bulardan

$\left|2a^2-b^2\right|\ge1\Leftrightarrow\left|\left(a\sqrt{2}-b\right)\left(a\sqrt{2}+b\right)\right|\ge1\Leftrightarrow\left|a\sqrt{2}-b\right|\cdot\left|a\sqrt{2}+b\right|\ge1$ munosabatni hosil qilamiz. $0 < a\sqrt{2} + b < 2a + 2b = 2(a+b)$ ekanligidan

$\left|a\sqrt{2} - b\right| \geq \frac{1}{a\sqrt{2}+b} > \frac{1}{2(a+b)}$ munosabat kelib chiqadi.

73. Avvaliga $\sqrt{(a+c)^2 + (b+d)^2} \leq \sqrt{a^2+b^2} + \sqrt{c^2+d^2}$ (*) tengsizlikni isbotlaymiz: tengsizlikning ikkala qismini kvadratga oshirib, $\sqrt{\left(a^2+b^2\right)\left(c^2+d^2\right)} \geq ac + bd$ yoki $(ad - bc)^2 \geq 0$ munosabatni hosil qilamiz. Endi

$$\sqrt{a^2+b^2} + \sqrt{c^2+d^2} \leq \sqrt{(a+c)^2 + (b+d)^2} + \frac{2|ad-bc|}{\sqrt{(a+c)^2+(b+d)^2}} \quad (**)$$

tengsizlikni isbotlaymiz: (**)ning ikkala qismiga umumiy mahraj tanlab va (*)dan foydalanib, $\left(\sqrt{a^2+b^2} + \sqrt{c^2+d^2}\right)^2 \leq (a+c)^2 + (b+d)^2 + 2|ad-bc|$ (***) munosabatni hosil qilamiz. Bundan

$$\sqrt{\left(a^2+b^2\right)\left(c^2+d^2\right)} \leq ac + bd + |ad-bc| \Leftrightarrow 2(ac+bd)|ad-bc| \geq 0$$

munosabatni hosil qilamiz. Demak, (***) isbotlandi. Bulardan esa isboti talab etilgan tengsizliklar kelib chiqadi.

74. Tengsizlikni ikkala qismini $\sqrt{abc}$ ga bo'lib,

$\sqrt{\frac{1}{bc}+\frac{1}{a}} + \sqrt{\frac{1}{ac}+\frac{1}{b}} + \sqrt{\frac{1}{ab}+\frac{1}{c}} \geq 1 + \frac{1}{\sqrt{bc}} + \frac{1}{\sqrt{ac}} + \frac{1}{\sqrt{ab}}$ tengsizlikni hosil qilamiz.

Endi, $\sqrt{\frac{1}{bc}+\frac{1}{a}} \geq \frac{1}{a} + \frac{1}{\sqrt{bc}}$ (*) ekanligini ko'rsatamiz: (*)ni ikkala qismini kvadratga oshirib,

$$\frac{1}{bc} + \frac{1}{a} \geq \frac{1}{a^2} + \frac{2}{a\sqrt{bc}} + \frac{1}{bc} \Leftrightarrow 1 \geq \frac{1}{a} + \frac{2}{\sqrt{bc}} \Leftrightarrow \frac{1}{b} + \frac{1}{c} \geq \frac{2}{\sqrt{bc}} \Leftrightarrow \left(\sqrt{b} - \sqrt{c}\right)^{-2} \geq 0$$

munosabatni hosil qilamiz. Xuddi shunday:

$$\sqrt{\frac{1}{ac}+\frac{1}{b}} \geq \frac{1}{\sqrt{ac}}+\frac{1}{b}, \sqrt{\frac{1}{ab}+\frac{1}{c}} \geq \frac{1}{\sqrt{ab}}+\frac{1}{c}$$

munosabatlar o'rinli. Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib, isboti talab etilgan tengsizlikni hosil qilamiz.

75. $a+b-c=x,\ b+c-a=y,\ c+a-b=z$ deb belgilash kiritsak, u holda $a=\frac{x+z}{2},\ b=\frac{x+y}{2},\ c=\frac{y+z}{2}$ tengliklarni topamiz va bu tengliklarni yuqoridagi tengsizlikka qo'yib, $\sqrt{\frac{x+z}{2}}+\sqrt{\frac{x+y}{2}}+\sqrt{\frac{y+z}{2}} \geq \sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z}$ munosabatni hosil qilamiz. $\forall a,b>0$ sonlar uchun $\frac{\sqrt{a}+\sqrt{b}}{2} \leq \sqrt{\frac{a+b}{2}}$ (*) tengsizlik o'rinli. (*) dan foydalansak

$$\sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z}=\frac{\sqrt{x}+\sqrt{y}}{2}+\frac{\sqrt{y}+\sqrt{z}}{2}+\frac{\sqrt{x}+\sqrt{z}}{2} \leq \sqrt{\frac{x+y}{2}}+\sqrt{\frac{y+z}{2}}+\sqrt{\frac{z+x}{2}}\ .$$

76. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$2(a^3b+b^3c+c^3a)+3 \geq (a^3b+a^3b+b)+(b^3c+b^3c+c)+(c^3a+c^3a+a) \geq$$
$$\geq 3a^2b+3b^2c+3c^2a$$

Bundan yuqoridagi tengsizlik isbotlandi.

77. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini qo'llab,

$$\left(1+\frac{a}{b}\right)\left(1+\frac{b}{c}\right)\left(1+\frac{c}{a}\right)=\left(\frac{a}{b}+\frac{a}{c}+\frac{a}{a}\right)+\left(\frac{b}{a}+\frac{b}{c}+\frac{b}{b}\right)+\left(\frac{c}{a}+\frac{c}{b}+\frac{c}{c}\right)-1 \geq$$
$$\geq 3\frac{b}{\sqrt[3]{abc}}+3\frac{a}{\sqrt[3]{abc}}+3\frac{c}{\sqrt[3]{abc}}-1=3\frac{a+b+c}{\sqrt[3]{abc}}-1 \geq 2\left(1+\frac{a+b+c}{\sqrt[3]{abc}}\right)$$

tengsizlikni hosil qilamiz.

78. Tengsizlikni chap qismini S bilan belgilab va Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$S\left(\left(a_1^2+a_2^2\right)+\left(a_2^2+a_3^2\right)+...+\left(a_n^2+a_1^2\right)\right)\geq\left(a_1^2+a_2^2+...+a_n^2\right)^2$ bundan

$S\geq\dfrac{a_1^2+a_2^2+...+a_n^2}{2}\geq\dfrac{\left(a_1+a_2+...+a_n\right)^2}{2n}=\dfrac{1}{2n}$ tengsizlik hosil bo'ladi.

79. $a=\dfrac{x}{y},b=\dfrac{y}{z},c=\dfrac{z}{x}$ deb belgilash kiritsak, u holda yuqoridagi tengsizlik quyidagi $(x-y+z)(y-z+x)(z-x+y)\leq xyz$ ko'rinishga keladi. Bu tengsizlik **69-**misolda **lemma** sifatida isbotlangan.

80. Avvaliga quyidagi lemmani isbotlaymiz:

Lemma. Musbat x,y sonlar uchun $\dfrac{x^7+y^7}{x^5+y^5}\geq\dfrac{x^3+y^3}{x+y}$ munosabat o'rinli.

Lemmaning isboti: Haqiqatdan ham

$$\left(x^7+y^7\right)(x+y)-\left(x^3+y^3\right)\left(x^5+y^5\right)=\left(x^7y-x^5y^3\right)+\left(y^7x-y^5x^3\right)=$$
$$=x^5y\left(x^2-y^2\right)-y^5x\left(x^2-y^2\right)=\left(x^2-y^2\right)\left(x^5y-y^5x\right)=xy\left(x^2-y^2\right)^2\left(x^2+y^2\right)\geq 0$$

tenglik $x=y$ bo'lganda bajariladi.

Lemmadan foydalansak,

$$\frac{a^7+b^7}{a^5+b^5}+\frac{b^7+c^7}{b^5+c^5}+\frac{c^7+a^7}{c^5+a^5}\geq\frac{a^3+b^3}{a+b}+\frac{b^3+c^3}{b+c}+\frac{c^3+a^3}{c+a}=$$
$$=\left(a^2-ab+b^2\right)+\left(b^2-bc+c^2\right)+\left(c^2-ac+a^2\right)=2\left(a^2+b^2+c^2\right)-(ab+bc+ca)$$

munosabat hosil bo'ladi.

Endi $2\left(a^2+b^2+c^2\right)-(ab+bc+ca)\geq\dfrac{1}{3}$ ekanligini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham $2\left(a^2+b^2+c^2\right)-(ab+bc+ca)\geq a^2+b^2+c^2\geq\dfrac{(a+b+c)^2}{3}=\dfrac{1}{3}$.

81. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$x+y+\frac{2}{x+y}+\frac{1}{2xy}=\frac{x+y}{4}+\frac{x+y}{4}+\frac{1}{x+y}+\frac{1}{x+y}+\frac{x}{2}+\frac{y}{2}+\frac{1}{2xy}\geq$$

$$\geq 7\sqrt[7]{\frac{x+y}{4}\cdot\frac{x+y}{4}\cdot\frac{1}{x+y}\cdot\frac{1}{x+y}\cdot\frac{x}{2}\cdot\frac{y}{2}\cdot\frac{1}{2xy}}=\frac{7}{2}$$

82. Avvaliga quyidagi $f(x)=\frac{x}{1+x^2}$, $x\in[0;1]$ funktsiyani hossalarini o'rganamiz. Ko'rinib turibdiki, ushbu funktsiya ko'rsatilgan oraliqda qavariq funktsiyadir. U holda qavariq funktsiyalar uchun ushbu $g(x)+g(y)+g(z)\leq 3g\left(\frac{x+y+z}{3}\right)$ Iensen tensizligidan foydalanib,

$$\frac{a}{a^2+1}+\frac{b}{b^2+1}+\frac{c}{c^2+1}=f(a)+f(b)+f(c)\leq 3f\left(\frac{a+b+c}{3}\right)=3f\left(\frac{1}{3}\right)=\frac{9}{10}$$

munosabatni hosil qilamiz.

83. Umumiylikni chegaralamasdan $a\geq b\geq c\geq d$ va $a^2\geq b^2\geq c^2\geq d^2$ deymiz. U holda Chebishev tengsizligini qo'llab, quyidagi

$\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)=\left(a+b+c+d\right)\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)\leq 4\left(a^3+b^3+c^3+d^3\right)$ yoki

$6\left(a^3+b^3+c^3+d^3\right)\geq\frac{3}{2}\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)$ (*) munosabatni hosil qilamiz.

Endi Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llasak,

$\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)(1+1+1+1)\geq\left(a+b+c+d\right)^2$ yoki $\frac{1}{2}\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)\geq\frac{1}{8}$

(**) munosabat hosil bo'ladi. (*) va (**) larni hadma-had qo'shish natijasida yuqoridagi isboti talab etilgan tengsizlik kelib chiqadi.

84. Istalgan natural n uchun $\frac{1}{2n-1} > \frac{1}{2n}$ ekanligini etiborga olsak,

$\frac{1}{2}+\frac{1}{3}+\frac{1}{5}+...+\frac{1}{2n-1} > \frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}$ munosabat o'rinlidir. Endi

$\underbrace{\frac{1}{2}+\frac{1}{2}+...+\frac{1}{2}}_{n} > \frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}$ yoki $\frac{1}{2} > \left(\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}\right)\frac{1}{n}$ ekanligidan

foydalansak, U holda

$$1+\frac{1}{3}+...+\frac{1}{2n-1} = \frac{1}{2}+\frac{1}{2}+\frac{1}{3}+...+\frac{1}{2n-1} > \left(\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}\right)\frac{1}{n}+\left(\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}\right)=$$
$$=\frac{n+1}{n}\left(\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+...+\frac{1}{2n}\right)$$

bo'ladi.

85. Berilgan tengsizlikda quyidagicha shakl almashtirish bajaramiz.

$\frac{1+a^2-(1-b^2)}{\sqrt{1+a^2}-\sqrt{1-b^2}} \le \frac{a^2+b^2}{ab}$ yoki $ab \le \sqrt{1+a^2}-\sqrt{1-b^2}$. Bu yerda

$a = tg\alpha, b = \sin\beta \quad \alpha,\beta \in \left(0;\frac{\pi}{2}\right)$ belgilash olsak, u holda

$tg\alpha\sin\beta \le \frac{1}{\cos\alpha}-\cos\beta$ yoki $\cos(\alpha-\beta) \le 1$ bo'ladi.

86. Yuqoridagi berilgan shartlarga ko'ra quyidagi tengliklarni yozamiz:

$$2\cdot 2\cdot x_2 = 2\cdot 2\cdot x_1 - 3x_1$$
$$2\cdot 3\cdot x_3 = 2\cdot 3\cdot x_2 - 3x_2$$
....
$$2\cdot n\cdot x_n = 2\cdot n\cdot x_{n-1} - 3x_{n-1}$$

va bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib,

$$3\sum_{i-1}^{n-1}x_i = 2\cdot 2\cdot x_1 + 2\sum_{i=2}^{n-1}x_i - 2\cdot n\cdot x_n = 1 + 2\sum_{i=1}^{n-1}x_i - 2\cdot n\cdot x_n \text{ yoki } nx_n = 1-\sum_{i=1}^{n}x_i > 0$$

munosabatni hosil qilamiz.

87. O’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligi va $x\in\left(0;\dfrac{\pi}{2}\right)$ uchun $\sin x\left(\sin 2x-1\right)\le a$ yoki $\sin x\le\sqrt{\dfrac{tgx}{2}}$ tengsizliklarni o’rinli

$$\sin x_1\cdot\sin x_2\cdot\ldots\cdot\sin x_n\le\left(\frac{\sin x_1+\sin x_2+\ldots+\sin x_n}{n}\right)^n\le$$

ekanligini etiborga olib, $\le\left(\dfrac{\sqrt{tgx_1}+\sqrt{tgx_2}+\ldots+\sqrt{tgx_n}}{n}\right)^n\cdot 2^{-\frac{n}{2}}\le$

$$\le\left(\sqrt{\frac{tgx_1+tgx_2+\ldots+tgx_n}{n}}\right)^n\cdot 2^{-\frac{n}{2}}\le 2^{-\frac{n}{2}}$$

munosabatni hosil qilamiz.

88. Umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo’llab, $\left(\dfrac{a^6}{x}+\dfrac{b^6}{y}+\dfrac{c^6}{z}\right)\left(x+y+z\right)\left(1+1+1\right)\ge\left(a^2+b^2+c^2\right)^3$ munosabatni hosil qilamiz. Bundan yuqoridagi isboti talab etilgan tangsizlik kelib chiqadi.

89. Ushbu $x^3+y^3\ge xy\left(x+y\right)$ tengsizlikdan foydalanamiz:

$$\frac{1}{a^3+b^3+abc}+\frac{1}{b^3+c^3+abc}+\frac{1}{c^3+a^3+abc}\le\frac{1}{ab(a+b)+abc}+\frac{1}{bc(b+c)+abc}+$$

$$+\frac{1}{ca(c+a)+abc}=\frac{1}{a+b+c}\left(\frac{1}{ab}+\frac{1}{bc}+\frac{1}{ca}\right)=\frac{1}{abc}$$

90. I-usul: Ushbu $1+2+\ldots+(n-1)=\dfrac{n(n-1)}{2}$ tenglikdan va o’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan foydalanamiz:

$$\frac{n(n-1)}{2}+x_1+x_2^2+x_3^3+...+x_n^n=x_1+(1+x_2^2)+(2+x_3^3)+...+\left((n-1)+x_n^n\right)=$$
$$=(x_1)+(1+x_2^2)+(1+1+x_3^3)+...+\underbrace{(1+1+...+1+x_n^n)}_{n-1}\geq$$
$$\geq x_1+2x_2+3x_3+...+nx_n$$
$$x_1+x_2^2+...+x_n^n=x_1+\left((x_2-1)+1\right)^2+...+\left((x_n-1)+1\right)^n\geq x_1+\left(1+2x_2-1\right)$$

II-usul: Bernulli tengsizligidan quyidagi usulda foydalansak:

$$x_1+x_2^2+x_3^3+...+x_n^n+\frac{n(n-1)}{2}=x_1+\left((x_2-1)+1\right)^2+\left((x_3-1)+1\right)^3+...+\left((x_n-1)+1\right)^n+$$
$$+\frac{n(n-1)}{2}\geq x_1+\left(1+2(x_2-1)\right)+\left(1+3(x_3-1)\right)+...+\left(1+n(x_n-1)\right)+\frac{n(n-1)}{2}=$$
$$=x_1+2x_2+3x_3+...+nx_n$$

munosabat hosil bo’ladi.

91. Bu tengsizlikni chap qismini S bilan belgilab, quyidagi usulda Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo’llaymiz:

$$S\left(a^2\left(b^2+1\right)+b^2\left(c^2+1\right)+c^2\left(a^2+1\right)\right)\geq\left(a\sqrt{a}+b\sqrt{b}+c\sqrt{c}\right)^2$$

bundan,

$$S\geq\frac{\left(a\sqrt{a}+b\sqrt{b}+c\sqrt{c}\right)^2}{a^2b^2+b^2c^2+c^2a^2+1}$$

tengsizlikni va undan

$$S\frac{\left(a\sqrt{a}+b\sqrt{b}+c\sqrt{c}\right)^2}{a^2b^2+b^2c^2+c^2a^2+1}\geq\frac{\left(a\sqrt{a}+b\sqrt{b}+c\sqrt{c}\right)^2}{\frac{\left(a^2+b^2+c^2\right)^2}{3}+1}=\frac{3}{4}\left(a\sqrt{a}+b\sqrt{b}+c\sqrt{c}\right)^2$$

munosabatni hosil qilamiz.

92. $y_k=\dfrac{1}{x_k}$ almashtirish olsak, u holda,

$$\frac{1}{y_k}=x_k=\frac{1}{1+\frac{a_k}{y_{k-1}}}\Leftrightarrow y_k=1+\frac{a_k}{y_{k-1}}.$$

$y_{k-1}\ge 1,\ a_k\ge 1$ ekanligidan $\left(\frac{1}{y_{k-1}}-1\right)\left(a_k-1\right)\le 0\Leftrightarrow 1+a_k\frac{1}{y_{k-1}}\le a_k+\frac{1}{y_{k-1}}$ bundan

$y_k=1+\frac{a_k}{y_{k-1}}\le a_k+\frac{1}{y_{k-1}}$ munosabatni hosil qilamiz.

$$\sum_{k=1}^{n}y_k\le\sum_{k=1}^{n}a_k+\sum_{k=1}^{n}\frac{1}{y_{k-1}}=\sum_{k=1}^{n}a_k+\frac{1}{y_0}+\sum_{k=1}^{n-1}\frac{1}{y_k}=A+\sum_{k=1}^{n-1}\frac{1}{y_k}<A+\sum_{k=1}^{n}\frac{1}{y_k}$$

$t=\sum_{k=1}^{n}\frac{1}{y_k}$ deb belgilash kiritamiz, bundan $\sum_{k=1}^{n}y_k\ge\frac{n^2t}{},\ t>0$

tengsizlikni hosil qilamiz.

$$\frac{n^2}{t}\le\sum_{k=1}^{n}y_k<A+t\Leftrightarrow t^2+At-n^2\ge 0\Leftrightarrow t>\frac{-A+\sqrt{A^2+4n^2}}{2}=\frac{2n^2}{A+\sqrt{A^2+4n^2}}=$$

$$=\frac{2n^2}{\sqrt{A\left(A+\frac{4n^2}{A}\right)}+A}\ge\frac{2n^2}{\frac{A+A+\frac{4n^2}{A}}{2}+A}+\frac{n^2A}{A^2+n^2}$$

93. $\frac{ab}{3a+b}\le\frac{12b+a}{49}$ chunki $2(a-2b)^2\ge 0,$ $\frac{bc}{b+2c}\le\frac{8b+9c}{49}$ chunki $2\left(2b-3c\right)^2\ge 0,$ $\frac{ac}{c+2a}\le\frac{18c+a}{49}$ chunki $2\left(3c-a\right)^2\ge 0$, bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib, isbotlash kerak bo'lgan tengsizlikni hosil qilamiz.

tenglik $a=2b=3c$ bo'lganda bajariladi.

94. x^9-1, x^3-1 ifodalar ishorasi bir xil hamda $x^4>0$ bo'lgani uchun

$$x^8-x^5-\frac{1}{x}+\frac{1}{x^4}=x^5(x^3-1)-\frac{x^3-1}{x^4}=\frac{(x^9-1)(x^3-1)}{x^4}\ge 0\,.$$

95. Ravshanki, $\frac{x-1}{x}+\frac{y-1}{y}+\frac{z-1}{z}=1$.

Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligiga ko'ra

$$\sqrt{x+y+z}\sqrt{\frac{x-1}{x}+\frac{y-1}{y}+\frac{z-1}{z}}\geq\sqrt{x-1}+\sqrt{y-1}+\sqrt{z-1}\,.$$

96.

$y_i=\frac{1998}{x_i+1998}$ almashtirish kiritamiz.

Ravshanki, $y_i\geq 0,\quad i=1,2,...,n$ va $y_1+y_2+...+y_n=1$.

Demak, $1-y_i=\sum_{j\neq i}y_j$.

Koshi tengsizligiga ko'ra $1-y_i\geq(n-1)\sqrt[n-1]{\prod_{j\neq i}y_j}$.

Bu tengsizliklarni barchasini ko'paytirsak,

$\prod_{i=1}^{n}(1-y_i)\geq(n-1)^n\prod_{i=1}^{n}y_i$ yoki $\prod_{i=1}^{n}\frac{1-y_i}{y_i}\geq(n-1)^n$ tengsizlikni hosil qilamiz.

$\frac{1-y_i}{y_i}=\frac{x_i}{1998}$ bo'lgani uchun bundan $x_1x_2...x_n\geq 1998^n(n-1)^n$ tengsizlikni hosil qilamiz.

Manbaalar ro'yxati

1. Hojoo Lee. Topics in Inequalities-Theorems and Techniques. Seoul: 2004.
2. Andreescu T., Dospinescu G., Cirtoaje V., Lascu M. Old and new inequalities. Gil Publishing House, 2004.
3. Mathematical Olympiads, Problems and solutions from around the world, 1998-1999. Edited by Andreescu T. and Feng Z. Washington. 2000.
4. Math Links, http://www.mathlinks.ro
5. Art of Problem Solving, http://www.artofproblemsolving.com
6. Math Pro Press, http://www.mathpropress.com
7. K.S.Kedlaya, A<B, http://www.unl.edu/amc/a-activities/a4-for-students/s-index.html
8. T.J.Mildorf, Olympiad Inequalities, http://web.mit.edu/tmildorf
9. Математические задачи, http://www.problems.ru
10. «Математика в школе» (Россия), «Квант» (Россия), «Соровский образовательный журнал» (Россия), "Crux mathematicorum with mathematical Mayhem" (Канада), "Fizika, matematika va informatika" (Ўзбекистон) журналлари.

MUNDARIJA